

**Endilikda Toshkent shahridagi
Turin politexnika
universiteti talabalari 2-
kursni tamomlab, o'qishini
AQShdagi Pittsburg
universitetida davom
ettirishlari mumkin.
Universitetlar bu borada
maxsus «2+2» dasturini ishlab
chiqdi.**

2 noyabr kuni ayni mavzuda tomonlar o'rtasida onlayn muloqot bo'lib o'tdi. Unda rasmiylar bilan birga Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabalari ham ishtirok etdi.

Onlayn muloqot davomida talabalarga «2+2» dasturining mazmun-mohiyati, Pittsburg universitetiga kirish shartlari va talablari hamda o'qish davomida va o'qishni tamomlagandan keyingi imkoniyatlar haqida ma'lumot berildi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bo'yicha ham javob olishdi.

Pittsburg davlat universiteti vakilining aytishicha, talabalar o'qishni tamomlab, AQShning nufuzli kompaniyalarida ishlash imkoniyatiga ham ega bo'lishadi.

«Chet ellik talaba diplomini qo'lga kiritganlaridan so'ng, AQShda 3 yil davomida talabalik vizalari bilan nufuzli kompaniyalarda ishlashlari mumkin. Har yili Pittsburg davlat universiteti "job fair", ya'ni mehnat yarmakalari bo'lib

o'tadi. Ularda 200ga yaqin mahalliy kompaniyalar Pittsburg universitetini yaxshi baholar bilan bitirgan talabalar bilan mehnat shartnomalarini tuzib, o'z kompaniyalariga olib ketishadi», – deydi universitet vakili.

Turin politexnika universiteti rektori Jamshid Inoyatxodjaevning aytishicha, endilikda talabalar AQShning nufuzli universitetlarida o'z malaka va tajribalarini oshirib, mashinasozlik bo'yicha yetakchi mutaxassisga aylanishadi.

«Ushbu dastur 2018 yilning may oyida Pittsburg davlat universiteti va Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi asosida ishlab chiqildi.

Endilikda, talabalarimiz 2-kursni yakunlab, o'qishni AQShda davom ettirishlari mumkin. Bu – bizning katta yutug'imiz. Chunki endilikda talabalarimiz mashinasozlik sohasida o'z bilim va tajribalarini oshirib, kelajakda O'zbekistonda mashinasozlik rivojiga o'z hissasini qo'shadi degan umiddamiz», – deb ta'kidladi universitet rektori Jamshid Inoyatxodjaev.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti
Matbuot xizmati